

MUHAMMAD YUSUF SHE’RLARIDAGI METAFORANING QO‘LLANILISHI

Maxmudova Kumushxon

Andijon davlat pedagogika intituti talabasi

Annotatsiya: Hammamizga ma’lumki, o‘zbek she’riyatidagi aksariyat she’rlarda metafora unumli qo‘llanilib, she’rni jozibasini oshirishga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘zbek she’riyatida Muhammad Yusuf ham o‘z she’rlarida metaforadan unumli foydalangan, she’rlari esa xalqimiz qalbidan chuqur o‘rin egallagan.

Kalit so‘zlar: Metafora, o‘xshatish, badiiy adabiyot, o‘zbek she’riyati, shoir.

Аннотация: Все мы знаем, что в большинстве стихотворений узбекской поэзии эффективно используются метафоры, способствующие увеличению очарования стихотворения. В узбекской поэзии Мухаммад Юсуф также эффективно использовал метафоры в своих стихах, и его стихи занимают глубокое место в сердцах нашего народа.

Ключевые слова: Метафора, сравнение, художественная литература, узбекская поэзия, поэт.

Abstract: We all know that in most poems of Uzbek poetry, metaphor is effectively used and contributes to increasing the charm of the poem. In Uzbek poetry, Muhammad Yusuf also made good use of metaphors in his poems, and his poems occupied a deep place in the hearts of our people.

Keywords: Metaphor, simile, artistic literature, Uzbek poetry, a poet.

Metafora bu yunoncha so‘z bo‘lib, “ko‘chirish” degan ma’noni anglatadi. Metafora yo‘li bilan ma’no ko‘chirilishini quyidagi usullar orqali ko‘rib chiqamiz:

a) ifodalanayotgan predmetlar (hodisalar) o‘rtasidagi shakliy o‘xshashlik asosida: burun (“odamning burni” - bosh leksik ma’no) – burun (“choynakning burni” – hosila ma’no);

b) ikkita belgi-xususiyat o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida: tez (“oz vaqt ichida, darrov” – bosh leksik ma’no: Majlis tez tugadi.) – tez (darrov achchiqlanadigan, jizzaki” – hosila ma’no: tez odam);

d) narsa-predmetlarning u yoki bu qismlarini o‘rin nuqtayi nazaridan o‘xshatish asosida: bosh (“tananing bo‘yindan yuqoridagi qismi” – bosh leksik ma’no: odamning boshi) – bosh (“tik narsalarning tepa qismi” – hosila ma’no: Shamol bo‘lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi);

c) bajarilgan yoki bajariladigan ish-harakatlar o‘rtasidagi nisbiy o‘xshashlik asosida: urmoq (“qo‘l yoki biror predmet vositasida zarba bermoq” – bosh leksik ma’no: Bektemir miltiq qo‘ndog‘i bilan uning peshonasiga bir urdi.) – urmoq (“tanqid qilmoq” - hosila ma’no: Ota-buvamni kovlab, gazetaga urib chiqishdi).

Metaforalar badiiy adabiyotda ham qo‘llaniladi. Ma’lumki, umuman, nutq jarayonida, xususan, badiiy nuqtda so‘zlar o‘z ma’nosida ham, ko‘chma ma’noda ham qo‘llanilishi mumkin. So‘zning odatiy ma’nosidan o‘zga ma’noda qo‘llanilishi sematik sathdagi og‘ish sanaladi. Ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlarning umumiy nomi ko‘chim deb yuritiladi. Adabiyotshunosligimizda bunga sinonium sifatida yana trop (yun. ko‘chim) termini ham ancha faol qo‘llanadi. Mumtoz adabiyotshunosligimizda ushbu tushunchani anglash uchun majoz istilohi qo‘llangan.

Qadimdan o‘rganilib kelinishiga qaramay, ilmda ko‘chimlarni tasniflash masalasida hanuz yakdillik yo‘q. An’anaviy tarzda mutaxassislar tomonidan ko‘chimning asosiy turlari sifatida metafora va metanimiya ko‘rsatilib, unga bosha navlariga shu ikki turning ko‘rinishlari deb qaraladi.

Ko‘chimning badiiy nutqda eng ko‘p va samarali qo‘llanuvchi turi, hech shubhasiz, istiora-metafora hisoblanadi.

So‘z ma’nosining metafora usulidagi ko‘chisida narsa-hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanadi. Mohiyatiga qaragan holda qadimdan metaforani “siqiq

o‘xshatish”, “yashirin o‘xshatis” deb atash urfga kirgan. Buning sababini yorqin tasavvur qilish uchun metaforaning yuzaga chiqish mexanizimini kuzatish kifoya: ikki narsa-hodisa bir-biriga o‘xshatiladi, so‘ng o‘xshatilayotgan narsani anglatuvchi so‘z tushuriladi-da, o‘xshayotgan narsani anglatuvchi so‘z bilan o‘xshatilayotgan narsa aytiladi. Masalan, hazrat Navoiy “Nuni dog‘i anbarin hilolingg‘a fido” deganda oshiq “jon”idagi “nun”ni yorining qoshiga fido etishga tayyorligini nazarda tutadi. Ya’ni bunda yorning qoshi “hilol” – yangi chiqqan oyga o‘xshatiladi-da, o‘xshayotgan narsa (hilol) ni anglatuvchi so‘z o‘xshatilayotgan narsa (qosh) ni anglatuvchi so‘z o‘rnida ishlatiladi. Ko‘ryapmizki, bunda o‘xshatish amali bor, biroq o‘xshatilayotgan narsa (qosh) ham, o‘shatishga asos bo‘layotgan belgi (“nozik, qayrilma”) ham, o‘xshatish vositasi ham (“xuddi”, “go‘yo” kabi) tushurib qoldirilgan, ya’ni o‘xshatish amali o‘ta siqiq shaklda, ayni chog‘da, yashirin tarzda amalga oshgan.

O‘zbek she’riyatida ham metaforalardan unumli foydalanilagan. Atoqli yozuvchi va shoirlarimiz metaforani asarlarida unumli va o‘rinli foydalanishgan. Misol tariqasida aytadigan bo‘lsak, el orasida atoqli va ardoqli, o‘z she’rlari bilan xalqimizning o‘zgacha mehrini qozongan shoirimiz Muhammad Yusuf o‘zining she’rlarida metaforalarni qo‘llab she’rlarining jozibadorligini yanada oshirgan. Buni quyidagi misralar orqali ko‘rib chiqamiz:

Boshimdan o‘tgani ko‘kka ham ayon,
Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan:
Men – zangor yaylovda olis, bepoyon,
Uyuridan ajrab qolgan qulonman...

Bu to‘rtlik orqali shoir hayot qiyinchiliklarini boshdan kechirganligi ifodalanmoqda. Birinchi misrasini talil qilsak, “Boshimdan o‘tgani ko‘kka ham ayon” ya’ni shoir aytadiki, hayoti davomida ko‘rgan qiyinchiliklari hamma odamga ayon, hamma uni qanday hayot kechirganini biladi demoqchi. Ko‘k bu o‘rinda atrofdagi insonlar ya’ni shoirning yaqinlari, do‘stlari, begona insonlar va shoirga qarshi bo‘lgan insonlar umumiy ma’noda berib o‘tilyapti. She’rning ikkinchi misrasi “Yulduzlar qiqirlab kular oqbadan “. Bu misrani tahlil qilsak, yulduzlar qiqirlab kulishi shoirning

omadsizlikka uchragan holatlarini ko‘rgan uning dushmanlarining kulishini aytib o‘tmoqda. “Oqbadan” so‘zining qo‘llanilishi esa shoirning holatiga kulgan insonlarning amaldor, zodagon, insonlar ekamligini ochib bermoqda. She’rning navbatdagi misrasi “Men – zangor yaylovda olis, bepoyon, Uyuridan ajrab qolgan qulonman...” Bu misra orqali shoir atrofdagi insonlardan ajrab qolgan odamga aylangan obzazini ochib bermoqda. O‘z uyuridan ajrab qolgan qulon bolasi bepoyon tekislikda nimalar xayoliga kelishini bir o‘ylab ko‘raylik, unga tashqi xavf ortadi va o‘zi himoyasiz qolgan hisoblanadi. She’rdagi obrazning ham xayollariga shunga o‘xshash chigal, tugunli o‘ylar kelganligi misrada ochib berilgan. Muhammad Yusufning ushbu she’ri “Onamga xat” deb nomlanishida ham katta ma’no bor, ya’ni har bir inson o‘zida kechayotgan holatlarni yaqinlariga ham ayta olmay qoladigan paytlar bo‘ladi. Lekin biz o‘zimizdagi kechinmalarimizni bir inson doim to‘g‘ri qabul qilib, bizga doim o‘z maslahat va yo‘riqlarini beminnat beradi. U inson - Ona.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, Muhammad Yusuf she’rlari inson anglab olishga qulay, tushunishiga oson bo‘lgan metaforalarni qo‘llaydi. Yuqorida tahlil qilgan she’rimiz ham inson ongiga tushunilishi oson bo‘lgan, lirik qahramonning xayollari o‘quvchiga tayyor holda gavdalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Dilmurod Quronov, “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent “Navoiy universiteti” 2018
2. Muhammad Yusuf she’riy to‘plamlari
- 3.H. Jamolxonov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darslik. “Talqin” nashriyoti.2005.